

O'ZBEKISTON RESPEBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

«Yer usti transport tizimi» kafedrasи

Davlat imtihon Hay'ati  
raisi  
X.Xamraqulov  
«15» 06 2018 yil

Kafedra mudiri sooy  
Dots. O.Adilov  
2018yil «13» 06

**BITIRUV MALAKAVIY IShIning**  
hisoblash - tushuntirish yozuvি

**Mavzu:** O'z R Ava D transport agentligi Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ da mikroavtobuslarni yuvish mintaqasini texnologik takomillashtirish

**Bajardi:** Cetinb.

403-14 EUTT guruhi  
talabasi Safarov A.

Rahbar:

sooy Adilov O

Mexnat muxofazasi  
bo'yicha maslaxatchi:

sooy Bozorayev pogob. 3. A

Tekshirdi:

sooy Xojanazarov B.  
sooy Maddoxob. D. S.

Taqrizchi:

sooy A. Javayev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'BLIM VAZIRLIGI  
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI  
“ER USTI TRANSPORT TIZIMI” KAFEDRASI

Кафедра мудири

(имзо)

Дон. О.Адилов

(Ф. И.Ш.)

“13” 06 2018 йил

## BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TOPSHIRIQ.

403-14 EUTT guruh talabasi Safarov Abror Xayrullo o'g'li  
(Familiasi I.Sh.)

1. Ish mavzusi: O'z R Ava D transport agentligi Navoyi viloyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ da mikroavtobuslarni yuvish mintaqasini texnologik takomillashtirish

BMI mavzusi institutning 2017 yil 15 dekabrda № 363-T sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Tugallangan ishning topshirish muddati 2018 yil 3 iyun

3. BMI bajarish uchun kerakli ma'lumotlar: ISTANA, A<sub>i</sub>=30 ta, D<sub>sk</sub>=365 kun, L<sub>ky</sub>=210 km, T<sub>n</sub>=10 soat

4. BMI hisob tushuntirish matnining tarkibi:

4.1. *Kirish qismi.*

4.2. *Tadkikot kismi*

4.3. *Tashkiliy qismi.*

4.4. *Tadqiqot qismi*

4.5. *Texnologik hisob.*

4.6. *Tavsia etilgan echimlarni iqtisodiy asoslash.*

4.7. *Mehnat, atrof-muhit va fuqaro muhofazasi.*

4.8. *Tavsia va xulosalar.*

4.9. *Foydalanimagan adabiyotlar ro'yxati.*

5. CHizma materiallar ro'yxati:

5.1. Юбие менинг тақасигига техноложик номиду 1 list

5.2. Юбие менинг тақисиги 1 list

5.3. Техноложик харита 1 list

5.4. Техноложик харита 1 list

5.5. Серке постни юбиели сийодчасел 1 list

5.6. TK-1 дарк постини техноложик ретга 1 list

6. Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_

Rahbar \_\_\_\_\_

Topshiriqni bajarishga kirishilgan sana Сенап (sana. talabaning imzosi)

BMIning bo'limlari maslahatchilaridan topshiriq olish

Nº	Bo'lim nomi	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo	Sana
1	Texnologik qism			30.05
2	Mehnat va atrof-muhit muhofazasi	Бобои муҳофиз. ЗА	Робоев	6.06
3	Инсекцион ғузел	Насо ғарб. О.Б	ДТ	26.05
4				

Bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi.

Nº	BMI bo'limlarining nomi	Bajarilish muddati	Izoh
1	Kirish qismi, mavzuni asoslash	24.02. - 28.03.	
2	Tashkiliy kism	29.03. - 12.04.	
3	Tadkikot kismi	13.04. - 18.05.	
4	Texnologik hisob	19.05. - 25.05.	
5	Tavsia ətilgan echimlarni iqtisodiy asoslash	26.04. - 30.05	
6	Mehnat, atrof-muhit va fukaro muhofazasi	31.05. - 6.06.	
5	CHizmalar:		
5.1		26.04. - 30.05	
5.2		31.05. - 6.06.	
5.3			
5.4			
5.5			
5.6.			
6	Tavsia va xulosalar		
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati		
8	BMI ni himoya olib chiqish va himoya qilish		

BMI rahbari

Sana

Talaba

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4 - 5
I. TASHKILIY QISM.....	6 - 17
II. TADQIQOT QISMI.....	18 - 23
III. TEXNOLOGIK QISM.....	24 - 41
IV. LOYIHANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	42 - 45
V. MEHNAT MUHOFAZASI.....	46 - 49
VI. ATROF MUHIT MUHOFAZASI.....	50 - 58
VII. FUQARO MUHOFAZASI.....	59 - 64
XULOSA.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	66.

№	Лист	№ ҳуққосам.	Имзо	Сана	БМИ 00000.000.000	Адаб	Лист	Листлар
Бажардиб.	Сафаров	Сейид			O'z R Ava D transport agentligi			
Рахбар	Адилов				Navoyi vlioyat xududiy			
Текширди	Ходжонгизов				boshgarmasiga garashli MChJ da			
Текширди	Дустомов				mikroavtobuslarni yuvish	403-14		
Рад. нуд.	О.Адилов				minotorsini texnologik			

## KIRISH

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning 2016 yilning asosiy yakunlari va 2017 yilda O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustvor yo'nalishiga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" ma'rurasida "Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshlilagini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustivor yo'nalish – bu asosiy etakchi sohalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikasiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investisiya siyosatini olib borishdan iborat", deb ko'rsatib o'tilgani bejizga emas.

Bu muhim vazifani hal qilish, tabiiyki, bo'lajak mutaxassislarning bilim darajasiga, salohiyatiga, tashabbuskorligiga, yangilikka intilishlariga, o'z sohalarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashdagi fidokorliklariga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ajralmas bo'g'ini sanaladigan, oliy ta'lim bosqichida tayyorlanayotgan mutaxassislarning qay darajada samarali ishlashi bilan bog'liq.

Mustaqil Respublikamiz halq xo'jaligining oldida iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish, ishlab chiqarish unumдорligini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, barcha turdagи resurslarni tejash va texnologik jarayonlarning ekologik xavfsizligini ta'minlashdan iborat bo'lgan asosiy vazifalar, avtomobil transporti va uning asosiy tarmog'i hisoblangan avtomobilarning texnik ekspluatasiyasiga ham bevosita tegishlidir.

Avtomobilarning texnik ekspluatasiyasi yagona avtomobil transporti tizimining tarmog'i sifatida uning ish samaradorligini belgilaydi. CHunki avtomobilarning texnik ekspluatasiyasi o'zining ishlab chiqarish jarayoni bilan birgalikda transport jarayonini zarur miqdordagi yuk hajmi va nomenklaturasini, tashish uchun lozim bo'lgan texnik jihatdan soz harakat tarkibi bilan ta'minlab beradi, bu esa birinchi navbatda tashish tannarxida o'z aksini topadi.

SHu bilan birga avtomobilarning texnik ekspluatasiyasini turlicha ta'sir qiluvchi ko'plab omillar, tizimlar yoki echimlar (qarorlar) daraxtidan tashkil topgan murakkab tizim sifatida qarash zarur.

Ushbu bitiruv malaka ishida texnik ekspluatasiyaning samaradorligini oshirish muammosi (masalasi) unga dasturiy maqsadli yondoshuv nuqtai nazaridan qaraladi va shunga binoan texnik ekspluatasiyaning maqsadi (maqsadlari) avtomobil transportining maqsadlari bilan chambarchas bog'liq holida tadqiq qilinadi Muammoga bunday yondoshuv avtomobillar texnik ekspluatasiyasining samaradorligiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni miqdoriy jihatdan baholashni talab qiladi ya'ni boshqaruvning turli darajalarida, mavjud muqobil variantlar, sharoitlar va resurs cheklanishlarida erishilgan ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda asoslangan muhandislik echimlarini qabul qilishni taqazo etadi.


Avtomobilarning texnik holatini boshqarish muammosini hal qilishning muhim elementlaridan biri avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning texnologik jarayonlarini va ishlab chiqarishini takomillashtirish hisoblanadi, bu esa o'z navbatida muhandis-texnika xizmatining tarkiblarini, muhandislik qarorlarini qabul qilish usullarini, postlardagi va ish joylaridagi jihozlarni mukammallashtirishni hamda mehnatni ilmiy tashkil etishni talab qiladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi, O'z R Ava D transport agentligi Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ da mikroavtobuslarni yuvish mintaqasini texnologik takomillashtirish muammosini o'z ichiga oladi.

## TADQIQOT QISMI

### Texnologik jarayonlarni tashkil etish va namunalash

TXK va JT texnologik jarayonlarini ishlab chiqishga ko'p (1-rasm) juda ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular birinchi navbatda, avtomobilning tuzilishini, ishlash sharoitini, hamda tashkiliy-ishlab chiqarish, texnik, ekologik, malakaviy va boshqa talablarni tavsiflaydi, oqilona moddiy va mehnat sarfiyoti bilan ishlarni sifatli va xavfsiz olib borishni ta'minlaydi.



#### 1. Texnologik jarayonlarni ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillar

Avtomobil transporti tizimida harakatlanuvchi qismlari, ishlab chiqarish texnik negizlarining miqdori va, turlari har xil bo'lgan avtotransport korxonalari mavjud bo'lib, ular TXK va ta'mirlashda munosib texnologik jarayonlardan foydalananadilar. SHuning uchun avtomobil transportiga TXK va uni ta'mirlash uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning quyidagi shakli kelib chiqqan.

Bu faoliyat uchun lisenziyaga ega bo'lgan, turli mulkchilik va tashkiliy shaklidagi ixtisoslashgan loyiha-texnologik, ilmiy va o'quv tashkilotlari tomonidan namunaviy texnologik jarayonlar ishlab chiqiladi. Keyin texnologik hujjatlar tuzatiladi va avtotransport korxonasining

muayyan sharoitiga bog'lanadi, ya'ni xususiy holga keltiriladi. Texnologik hujjatlar ishlab chiqish va muayyan sharoitga bog'lash andozaviy texnologik hujjatlarni ishlab chiquvchilar yoki avtotransport korxonalari (birlashmalari) tomonidan bajarilishi mumkin. Buning uchun katta va o'rta korxonalarda muxandis-texnolog lavozimi kiritilgan bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish bazasi va bajaruvchilarga bog'langan texnologik jarayonlar yuqori tashkilotlar yoki ATK yoki TXKS bosh muxandisi tomonidan tasdiqlangach, bajaruvchi uchun qonun hisoblanadi.

*Namunalashtirish* (grekchadan olingan tupos- iz, shakl, namuna ma'nosida)- bu, biror yangi mahsulotni, jarayonni barpo qilish yoki kerakli ishlarni bajarishda qo'llash uchun andozaviy echimlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan bixillashtirish usulidir. Bixillashtirish bir me'yorga va shaklga keltirishni ko'zda tutadi.

Avtomobil transportiga tadbipi bo'yicha, namunalashtirish bir qator mahsulotlarni umumiy texnik tavsifiga asosan andozaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Namunaviy texnologik jarayonlar namunaviy texnologik amallarning majmui hisoblanadi.

*Namunaviy texnologik amal* texnologik jihatdan bir-biriga mos keladigan harakatlanuvchi vosita uchun bixillashtirilgan amal bildiradi. U etalon yoki aytib o'tilgan texnik ekspluatasiya sharoitlari uchun ishlab chiqiladi va keltirilgan avtomobillar soniga yoki ishlab chiqarish dasturiga, quvvatiga to'g'ri keladigan andozaviy texnologik jihozlarga, qo'shimcha jihozlarga va boshqa ishlash anjomlariga ega bo'lgan avtomobil transporti korxonalarida qo'llaniladi.

Avtomobilarga TXK va ta'mirlash texnologik jarayonlarini (TJ) ishlab chiqish uchun boshlang'ich ma'lumotlar quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish dasturi (yillik va kunlik) u amallarni mexanizasiyalashtirish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan darajaga bog'liq bo'lgan;
- ta'sir etish ob'ekti (avtomobil, agregat, birikma, detal);
- bajariladigan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mir turlari;
- texnologik jarayonni loyihalash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zida jamlashi zarur bo'lgan, mahsulotning yig'ma chizmasi: konstruksiyani tez va to'liq o'zlashtirishni ta'minlovchi ko'rinishlar va kesimlar; bo'laklarga ajratiladigan mahsulotning tarkibiga kiruvchi barcha detallar, yig'malar va birikmalarning nomlari; o'lchamlar;
- mahsulotni yig'ish, sozlash, sinash, nazorat va qabul qilish uchun texnik sharoitlar;
- ishlatiladigan jihoz va asboblar to'g'risida ma'lumot;
- mahsulot detallarining ishonchliligi, kelib chiqishi mumkin bo'lgan ta'mirlash to'g'risida ma'lumot;
- ko'tarish-tashish anjomlarini tanlash uchun mahsulotning yoki avtomobilning og'irligi.

*Texnologik jarayonlarni ishlab chiqish ketma ketligi* (algoritmi) quyidagilardan iborat: mahsulotning tuzilishi o'rganiladi, ishlarni bajarish tartibi rejasi tuziladi, amal va o'tishlarning ketma-ketligi aniqlanadi, ishlarni bajarish sur'ati belgilanadi, har bir amalga vaqt me'yori aniqlanadi, jihozlar, bajaruvchilar, moslamalar va asboblar tanlanadi, texnologik hujjatlar naqshiylashtiriladi.

*Texnologik hujjatlar* o'zida avtomobilgarga TXK va ta'mirlash texnologik jarayonlarini aniqlab beruvchi, grafik va matn hujjatlarni aks ettiradi. Texnologik hujjatlarning birlashgan tizimi ularning quyidagi turlarini nazarda tutadi: texnologik xaritalar, yo'nalish xaritalari, operasiyalar xaritasi, ko'rsatmalar, amallar chizmalari, ehtiyoj qismlar buyurtmasi va me'yori qaydnomasi, materiallar, asboblar, yordamchi va mavjud jihozlar hamda boshqa hujjatlar. Ob'ektga kerakli ta'sir etishdan avval va keyin (qabul qilish, yuvish, ajratish, yig'ish, sozlash, diagnostikalash, moylash, payvandlash, bo'yash va boshqalar) talablarini belgilovchi me'yoriy-texnologik hujjat texnik sharoitlar (TSH) deb ataladi. TSH bajarilgan ishni topshirishda TXK va ta'mirlash sifatini baholashga imkon beradi, shartnoma tuzishda hamda reklamasiya taqdim etishda ishlatiladi.

Texnologik jarayonda bajariladigan ishlar davomiyligi *vaqt me'yori* deb ataladi. Texnik vaqt me'yori – bu, kerakli mutaxassislikka ega bo'lган bir yoki bir necha bajaruvchilar tomonidan aniq tashkiliy-texnik sharoitlarda texnologik amallarni reglamentlangan bajarilish vaqtidir.

TXK va ta'mirlash ishlarini bajarish tarkibi va ketma ketligi texnologik jarayonning birlamchi hujjatida – *texnologik xaritada* aks ettiriladi. SHu jumladan, xaritada har bir amalda ishlatiladigan jihozlar, asboblar, moslamalar; bajaruvchining mutaxassisligi, har bir amal va o'tish hamda hamma texno'logiya uchun birgalikdagi vaqt me'yori ko'rsatiladi. Texnologik jarayonlarni tashkil etish usullari va qabul qilingan shakllariga hamda bajariladigan ish turlariga asosan avtomobil transportida quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi va ulardan foydalilaniladi:

- ATK da qo'llanilishi bilan asosiy hujjat nizomida qabul qilingandan biron bir chekka chiqishga yo'l qo'ymaydigan, tashkiliy-uslubiy va umumtexnik talablar hamda ishni bajarish qoidalarini belgilovchi yo'riqnomalar (YX);
- avtomobilning asosiy agregat va tizimlari uchun JT ishlarini postlarda va ustaxonalarda o'tkazish qoidalari va tartibini, avtotransport korxonasini aniq sharoitini hisobga olgan holda ayrim o'zgarishlarga yo'l qo'ylishini belgilab beruvchi joriy ta'mirlash yo'riqnomasi (JTY);
- TXK tartibi va qoidasini reglamentlovchi va ATK da ishlatishda JTY bilan bir xil sharoitga ega bo'lган, texnik xizmat ko'rsatish ko'rsatmasi (XKK);
- uslubiy ko'rsatma, tavsiya sifatidagi va ishlarni bajarishning asosiy usullarini belgilovchi hujjat sifatida.

Texnologik jarayonni loyihalashda, ishni bajarishdagi ishlatiladigan jihozlarni hisobga olgan holda vaqt, joy va bajaruvchi bo'yicha ishlar birlashtirilishi mumkin bo'lgan variantlarni ko'rib chiqish zarur. Texnologik jarayonni ishlab chiqishda tarmoqli rejalashni qo'llash amallar va o'tishlarni shunday o'mnashishiga imkon beradi, natijada ishlarni kafolatli sifatda o'tkazilishi bilan bir qatorda ularni bajarish uchun kamroq vaqt sarflanadi.

Avtomobilarga TXK va JT texnologik jarayonining optimal (muqobil) varianti yuqori ishlab chiqarish unumдорligи va sifatini ta'minlaydi alohida amallar va o'tishlarni tushirib qoldirish yoki qaytarilishlariga chek qo'yadi, mexanizasiyalash anjomlaridan unumli foydalanishga va ish joylarini yaxshi jihozlashga imkon beradi.

## **Tashkil etish shakllari va usullari**

Avtotransport korxonalaridagi ishlab chiqarish bo'limlari(zona, ustaxona, uchastka)ning asosiy tuzilish elementlari, bir yoki bir necha ishchining ishlash faoliyati muhitini ko'rsatuvchi ish joylari hisoblanadi.

*Ish joyi* – avtomobilarga TXK va ta'mirlashda ishlab chiqarish topshirig'ini ishchi tomonidan bajarishga moslashtirilgan muhitning bir qismi.

Ish joyi o'z ichiga ishlab chiqarish faoliyati zonasini, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish va texnologik jihozlarni, texnologik qo'shimcha jihozlarni, moslamalar va asboblarni oladi. Ish joyini tashkil qilishda antropometrik ma'lumotlar, mehnat muhofazasi talablari, ergonomika, muhandislik psixologiyasi va texnik did hisobga olinadi.

Texnologik jarayonni bajaruvchilarning soniga qarab ish joyi yakka va guruhli bo'ladi.

ATK va TXKS larda ish joylari quyidagicha turlanishi mumkin:

- ishlovchilarning toifasiga qarab – ishchi, raxbar, mutaxassis, xizmatchi;
- kasbi bo'yicha – asosiy ish mutaxassisligi yoki lavozimi bo'yicha (avtomobilarni ta'mirlovchi chilangar, diagnostikachi, elektrchi, akkumulyatorchi, payvandchi va h.k.);
- TXK va ta'mirlash ishlari bo'yicha (KXK, 1-TXK, 2-TXK, JT va h.k.);
- ish joyida bajariladigan amallarning mexanizasiyalashganlik darajasi bo'yicha – avtomat, yarim avtomat, mashinali, mexanizasiyalashgan (mashina-qo'lli) va qo'lda bajariladigan (mexanizasiyalashmagan) texnologik jarayonlar bo'yicha;
- muhitda joylashishi bo'yicha – qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan;
- ishchilarni joylashtirishi bo'yicha - yakka tartibdagi va kompleks (jamoali, brigadali);
- xizmat ko'rsatiladigan postlar soni bo'yicha – bir postli va ko'p postli;

- smenalar soni bo'yicha – bir smenali, ikki smenali, uch smenali;
- mehnat sharoiti bo'yicha, me'yoriy yoki og'ir jismoniy mehnatli, me'yoriy yoki zararli ishlab chiqarish sharoitili.

Ishchi posti-maydoniga bir yoki bir necha avtomobillar qo'yiladigan ish joyini bildiradi. Bir necha ishchi bir postda ish bajarsa, jamoali, ish joyi deb ataladi. Ish joyining avtomobilarga TXK va JT texnologik jarayonidagi ishlab chiqarish sharoitlariga moslik darajasini attestasiya asosida aniqlanadi. U qo'l va og'ir jismoniy mehnat qismini kamaytirishga, kam samarali ish joylarini yo'q qilishga, jihozlarni almashtirib, ishlatish koeffisientini ko'paytirishga imkon beradi. Baholash quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladi: ish joyining qurollanganligi va texnologik jihozlarning o'rmatilishi, komplektligi, texnologik hujjatlari, ish hajmining bo'linishi va birlashishi, xodimlarning mutaxassisligi, ishslash sharoiti. Ish joyini baholashni bosh muxandis yoki texnik direktor rahbarligidagi hay'at o'tkazadi. Baholash natijalariga ko'ra ish joyini maqbul qilish va takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Baholashdan o'tmagan ish joylari takomillashtiriladi yoki yo'q qilinadi.

ATK dagi muhandis-texnik xizmati, texnologik bixillashtirilishidan, TXK va ta'mirlash me'yorlaridan foydalangan holda, harakatdagi tarkibning ishslash qobiliyatini ta'minlaydi. Bunda ekspluatasiya qilish sharoitlari va harakatdagi qismning unga moslanganligi, hisobga olinadi. jarayon va ishlab chiqarish bazasi elementlarini turlanishi va

Postni ixtisoslashtirish darajasi unda bajariladigan amallar soni va tarkibiga bog'liq (1-jadval)

1-jadval


#### Avtomobilarga TXK va ta'mirlash postlarini ixtisoslashtirish darajasi

Tavsifi	Amallar soni
Kengunversalli	200 va undan ko'p
Universalli	100-200
Ixtisoslashtirilgan	20-50
Maxsus	20 dan kam

Universal post – bu, bir necha TXK va ta'mirlash ish turlarini bajarish mumkin bo'lgan postdir. Bular nisbatan katta bo'limgan ekspluatasiya yoki ta'mirlash korxonalarida tashkil qilinadi.

Katta hajmdagi harakatdagi tarkibga xizmat ko'rsatuvchi TXK va ta'mirlash ishlab chiqarish bazasida ishlarni ixtisoslashtirilgan postlarda bajarish imkoniyati tug'iladi. Bunday post – andozaviy texnologik jarayonning aniq bir turi o'tkaziladigan postdir. ixtisoslashtirilgan postlarga moylash posti, 2-TXK posti, agregatlar almashtiriladigan JT posti, diagnostikalash posti

va boshqalar misol bo'la oladi. Maxsus postlar o'ziga xos ishlar yoki harakatdagi tarkibga ayrim texnologik jarayonlar uchun (sanitar ishlov berish, sisternaning hajmini o'lchash, katta yuq ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan avtomobilgarga TXK va JT uchun balkonlarni qo'llash tashkil etiladi. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish hisobiga bajariladigan ishlar sifatini va ishlab chiqarishni yanada baland ko'rsatkichlariga erishadi. Har bir shunday postda bir turdag'i jihoz va bajariladigan ishga mos mutaxassis talab qilinadi. Maxsus va ixtisoslashtirilgan postlarda ishni mexanizasiyalash darajasi va o'tkazuvchanlik qobiliyati yuqori bo'ladi, ammo ularda chegaralangan tarkibdagi texnologik amallarni bajarish mumkin. SHuning uchun maxsus va ixtisoslashtirilgan postlar harakatdagi tarkibning soni katta bo'lgan ATK larda, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishda va avtotransport birlashmalarining bosh korxonalarida tashkil qilinadi. Universal postlarda texnik xizmat ko'rsatishning afzalligi har bir postda turli hajmdagi ishlarni bajarish, turli modeldagi avtomobilgarga xizmat ko'rsatish, turli davriylikdagi TXK va JT ni bajarish hisoblanadi. Bu shaklda ishni tashkil qilish kamchiligi: texnologik jihozlarni ko'p marotaba nusxalanishi kerak bu, korxonani yuqori unumli mehnat vositalari bilan jihozlash imkoniyatini chegaralaydi; juda yuqori malakadagi va kasblarni birlashtiruvchi ta'mirlash ishchilarini zarurligi; ishchilarni va mehnatni ixtisoslashtirish imkoniyatining chegaralanganligi.



2-rasm. Avtomobilgarga TXK va JT postlarining turlari

1-4-boshi berk: 1-transheyali ko'rish ariqchasida, 2-transheya-siz, 3-ko'targichli, 4-pol ustida; 5-ko'rish ariqchasida o'tuvchi; 6-oqimli qator

Universal va ixsoslashtirilgan TXK va ta'mirlash postlarining mavjudligi va bиргаликда ishlashi ishlab chiqarish texnik bazasiga bog'liq holda, postdag'i texnologik jarayonlarini

ixtisoslashtirish darajasini belgilaydi. Avtomobilarni joylashtirish usullariga ko'ra postlar boshi berk va o'tuvchan, pol ustida, ko'rish ariqchalarida, ko'targichlarda va estakadalarda bo'ladi (2-rasm). Ishlab chiqarish zonalarida ishchi postlari bir-biriga nisbatan parallel joylashadi. Bunda harakatdagi tarkib modellari va bajaradigan ish turlariga bog'liq bo'lgan o'tish yo'llarning me'yoriy qiymatlari hisobga olinadi. Ketma-ket joylashgan ixtisoslashtirilgan postlar majmuasi oqimli qatorni tashkil qiladi.

TXK ni tashkil qilishning oqimli usuli ishlarni mexanizasiyalash darajasi yuqori bo'lishini, avtomobilning harakatlanishi uchun mexanizasiya vositalarini qo'llashni, mehnat taqsimotining progressiv usullaridan foydalanishi, xizmat ko'rsatiluvchi harakatdagi tarkib va ijrochilarni norasional harakatlanishini kamaytirishni ta'minlaydi. Oqimli qator postlarida avtomobillar bo'ylama va ko'ndalang joylashtirilishi mumkin. Smenalik ish dasturi kamida 12-15 bir turdag'i avtomobilarga 1-TXK va 5-6 ta 2-TXK bo'lganda oqimli qator tashkil qilinadi. Texnik xizmat ko'rsatish bilan birlashtirilishi mumkin, ham bajarilishi mumkin, biroq bunda JT ning umumiy ish hajmi bajarilayotgan TXK ish hajmining 15-20% idan oshmasligi kerak. Bo'ylama oqimli qatorda TXK dagi turli ish hajmiga ega bo'lgan ishlarni va turli yoshdag'i hamda yurgan yo'llari turli avtomobillar JT ishlarni birlashtirish qiyin. SHuning uchun TXK ga kundalik topshiriq tuzish vaqtida avtomobilarning texnik holatini hisobga olish va, diagnostika o'tkazish zarur. Natijaga ko'ra, yo'l yo'lamay joriy ta'mir ishlari oqimli qatorda bajariladimi yoki alohida JT postlarida bajariladimi, aniqlab olinadi. TXK oqimli qatorda postlarning ko'ndalang joylashishi avtomobil istalgan bir postdan bemalol chiqib ketishini ta'minlaydi.

Avtomobilarni joriy ta'mirlash yakka tartib va agregat usullarida bajariladi. Yakk'a tartib usulida avtomobillardan echilgan agregatlar o'zgartirilmaydi, ular ta'mirlanadi va xuddi shu avtomobilga o'rnatiladi. Bunda avtomobilarning turib qolish vaqtiga ko'payadi, shuning uchun ATK larda joriy ta'mirlash ko'proq agregat usulida amalga oshiriladi, ya'ni joriy va kapital ta'mir zarur bo'lgan agregatlar aylanma fondidagi ta'mirlanganlariga yoki yangisiga almashtiriladi. Joriy ta'mirlashning ish hajmi ajratish-yig'ish va kuzov postlarida bajariladi. Keyingi postlarda avtomobilning kuzovi bo'yicha payvandlash, tunukasozlik va bo'yoqchilik ishlari hamda bortli avtomobil platformasi bo'yicha duradgorlik ishlari, ixtisoslashtirilgan va maxsus harakatdagi tarkib uchun boshqa ishlar bajariladi. Joriy ta'mirlash uchun bajaradigan ish turiga qarab, ko'rish ariqchalari yoki ko'targichlar hamda ko'tarish-tashish jihozlari, moslamalar va asboblar bilan jihozlangan universal va ixtisoslashtirilgan postlar ishlataladi. ATK da JT ning ishlab chiqarish – ustaxona ishlari uchun quyidagi ishlab chiqarish ustaxonalari, bo'limlari va sexlari tashkil qilinishi mumkin: agregat, chilangar-mexanik, elektrotexnik, yonilg'i apparatlari, akkumulyator, payvandlash, tunukasozlik, misgarlik, temirchilik, qoplamacchilik, bo'yoqchilik, shina yig'ish,

kamera yamash yoki shina ta'mirlash, duradgorlik, taksometr ta'mirlash, radiotexnika va boshqalar.

Katta avtovtransport korxonalarida ba'zi bir ishlarni bajarish bir necha ixtisoslashtirilgan sexlarga va ustaxonalarga bo'linishi mumkin. Masalan, agregat ishlari motor sexida, avtomatik va gidromexanik transmissiyani JT uchastkasida, tormoz tizimi va pnevmoosma jihozlari va birikmalarini JT sexida, eyilgan detallarni tiklash-tiklash sexida va boshqalarda bajarilishi mumkin. Harakatdagi tarkibga soni uncha katta bo'lmanagan ega bo'lgan avtovtransport korxonalarida ishlab chiqarish maydonlaridan va ta'mirlash xodimlaridan samarali foydalanish uchun JT ishlari kompleks sexlarga birlashtiriladi, bunda ijrochilar bir necha kasblarni birlashtirib ishlaydi. Agregat-mexanik, elektrokarbyurator, shina va boshqa sex hamda uchastkalar mavjud bo'lishi mumkin, biroq bu kompleks sexlar uchun texnik xavfsizlik, ishlab chiqarish sanitariyasi talablarini ta'minlash jarayoni qiyinlashadi, birlashgan kasb, zararli mehnat sharoiti va boshqalar uchun haq to'lash imkoniyati pasayadi.

Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologik jarayonini tashkil qilish chog'ida ishlarni ixtisoslashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Ixtisoslashtirish texnologik jarayonlarni umumiy belgilari bo'yicha bajarishda alohida guruhlarga ajratishdan ishchilarni ham ixtisoslashgan guruhlarga bo'lib, ixtisoslashtirilgan texnologik jihozlarni qo'llashdan va alohida ish joylari ajratishdan iborat.

Ishlarni ixtisoslashgantirishning birinchi pog'onasida andozaviy jarayonlar TXK va JT ning agregat usuli ramkasida ko'rib chiqiladi (3-rasm). Ikkinci pog'onasasi muayyan korxona ishlab chiqarish texnik bazasining umumiy rejaviy echimini ishlab chiqish yoki unga tuzatish kiritishdan iborat bo'lib, TXK hamda ta'mirlash ish hajmi muayyan postlar va sexlar bo'yicha taqsimlanadi keltiradi. Bu bosqichda ishlab chiqarish dasturiga, ekspluatasiya jadalligiga, ta'mirlanayotgan harakatdagi tarkib soniga va tuzilishiga hamda ta'mirlash ustaxonalari va ular uchun maydonlarni mavjudligiga nisbatan korxonaning post va sexlarini ixtisoslashtirish darajasi aniqlanadi. Hisoblash davrida, kutilayotgan ish hajmi oldida post va sexlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati nisbatan asosiy shart hisoblanadi.

Postdagi ishlar universal postlardagi kabi, ixtisoslashtirilgan postlarda ham va oqimli qatorlarda bajarilishi mumkin. Ko'pincha maxsuslashtirilgan postlarda andozaviy texnologik jarayondagi faqat bir xil ishlarning qismlarigina tashkil etiladi. Bunday postlar qoidaga muvofiq texnologik qatorga birlashtiriladi.

Sex va ustaxonalardagi ishlarni ixtisoslashtirish jarayoniga asos qilib texnologik birga bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni birlashtirish tamoyili olingan. Sexlardagi (ustaxonalardagi) ishlarning turlarga bo'linishi, ATK da asosiy sex va ustaxonalarni tashkil qilinishining maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

TXK va ta'mirlash texnologik jarayonlarini ixtisoslashtirishning uchinchi pog'onasi, ish joylarini tashkil qilish hamda post va ustaxonalarda jihozlarni joylashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

**Ishlarni agregat usulida tashkil etish  
sharoitida avtomobilarga TXK va  
ta'mirlashning namunaviy (andozaviy)  
texnologik jarayonlari**

TXK vata'mirlash postlarini ixtisoslashtirish		Sex va ishlab chiqarish ustaxonalarini ixtisoslashtirish	
Ishning turi bo'yicha:	Agregat, tizim va birikmalar bo'yicha:	Ishning turi bo'yicha:	Agregat, tizim va birikmalar bo'yicha:
-tozalash-yuvish; -nazorat-diagnostika; -sozlash; -qotirish; -ajratish-yig'ish; -yonilg'i apparatlariga xizmat ko'rsatish; -elektrotexnik; -elektron apparatlariga xizmat ko'rsatish; -shinalarga xizmat ko'rsatish; -moylash-yig'ishtirish va boshqalar	-dvigatel, sovitish, gaz chiqarish tizimlari; -ta'minot tizimi; -transmissiya; -osmalar; -etaklovchi ko'pri; -boshqariluvchi o'qlar va rul tortqilari; -g'ildirak va gupchaklar; -tormozlar; -elektr jihozlari va asboblar; -elektron jihozlar; -kuzov va boshqalar	-agregat (agregatlarni ta'mirlash); -yonilg'i apparatlarini ta'mirlash; -elektrotexnik; -elektron apparatlarini ta'mirlash; -akkumulyator; -shina yig'ish; -shina ta'mirlash; -misgarlik; -tunikasozlik; -payvandlash; -temirchi-ressor; -armatura; -qoplamachilik; -bo'yoqchilik; -chilangar-mexanik va boshqalar	-dvigatel; -yonilg'i apparaturasi; -uzatmalar qutisi; -kardan vali; -ilashish muftasi; -gidroyuritma agregatlari va birikmalari; -rul mexanizmi; -boshqariluvchi o'q; -rul boshqarmasi tortqilari va richaglari; -etaklovchi ko'pri; -tormoz kolodkalari va barabanlari; -pnevmatik jihozlar; -kompressor; -elektr jihozlari; -akkumulyator; -elektron jihozlar; -kuzov; -g'ildirak yig'masi; -shina va kameralar va boshqalar

**3-rasm. Andozaviy texnologik jarayonlarni ixtisoslashtirish**

Postlardagi va ustaxonalardagi ishlarning ixtisoslashtirilishi ikki yo'nalish bo'yicha olib boriladi: ishning turlari (tekshiruv, qotirish, moylash va boshqalar) va agregatlar, tizimlar, birikmalar bo'yicha. qoidaga muvofiq muayyan post yoki sexda bajariladigan ishlarning tahlili

natijasida, texnologik jihozlarning tarkibi va joylashishi, ta'mirlash ishchilarining malakasi va soni, ishlarni tashkil qilishning umumiyl shakli va ijrochilarni joylashish shakli aniqlanadi.

Katta ishlab chiqarish dasturida qo'llaniluvchi va ishlab chiqarishni industrial usuliga to'g'ri keluvchi, TXK va ta'mirlash texnologik jarayonini ixtisoslashtirishning to'rtinchi pog'onasini qo'llash ehtimoldan holi emas.

## **Texnik qarovini o'tkazish tartibi va texnologiyasi**

Ekspluatasiyada avtomobilarni texnik holatini ushlab turish usullaridan biri, texnik qarovi hisoblanadi. Texnik qarovni o'tkazish jarayonida quyidagi masalalarni hal qilish ko'zda tutilgan:

- transport vositalari va jihozlarining texnik holatini, harakat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy talablarga va huquqiy aklalarga, qoidalarga, standartlarga va texnik me'yorlarga to'g'ri kelishini tekshirish;
- haydovchi yo'l harakatida ishtirok etishiga ruxsat berilishini nazorat qilish;
- transport vositalarining ekspluatasiyasi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatni va ma'muriy qoida buzishlarni oldini olish va ogohlantirish;
- o'g'rilangan transport vositalarini hamda yo'l transporti hodisalari sodir bo'lgan joylardan qochib yurgan transport vositalarini fosh etish.

Texnik qarovni o'tkazishning quyidagi davrlari belgilangan:

a) tijorat asosida yo'lovchilarni tashishda foydalanimadigan engil avtomobillar, 8 tadan (xaydovchi joyidan tashqari) ko'p o'rindiqqa ega bo'lgan, doimiy ravishda odamlarni tashish uchun jihozlangan avtobuslar va yuk avtomobilari, katta o'lchamdag'i, juda og'ir va xavfli yuklarni tashuvchi maxsus va ixtisoslashtirilgan transport vositalari va tirkamalar – yiliga 2 marta;

b) chiqarilganiga, chiqarilgan yilini qo'shganda, 5 yildan ko'p bo'limgan transport vositalari (a-punktda ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - 2 yilda 1 marta;

v) chiqarilganiga, chiqarilgan yilini qo'shganda, 5 yildan ko'p bo'lgan transport vositalari hamda chiqarilgan yili aniqlana olmagan transport vositalari (a-punktda ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari)- yiliga 1 marta.


Texnik qarovda transport vositalarining texnik holatini tekshirish uchun texnik diagnostikalash vositalarini keng qo'llash inobatga olingan. Transport vositalarini texnik holatini tekshirishda boshi berk va o'tuvchan postlardan foydalinishga ruxsat etiladi, ammo oqimli qatorlarga ko'proq axamiyat berish kerak. Engil avtomobilarni oqimli qatorda tekshirish rejalaridan birining varianti 1.4-rasmida taqdim qilingan. avtomobillar va avtobuslarni tekshirishni ko'rish ariqchalaridan foydalangan holda o'tkazish tavsiya qilinadi.

Quyidagi talablarga javob beruvchi nazoratchilar avtomobilning texnik holatini nazorat qilishni amalga oshirishlari mumkin:

- minimal yoshi – 18 da;
- tayyorlovdan o'tgan va kerakli guvohnomaga ega;
- tekshiriladigan transport vositasi toifasi bo'yicha haydovchilik guvohnomasiga ega.

Transport vositalariga texnik qarov punkti, belgilangan vaqtida metrologik tekshiruvdan o'tishi zarur bo'lgan, texnik diagnostikalash vositalarining minimal to'plami bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Progressiv texnologik jarayonlardan foydalanib, yoshi 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan turli avtomobillarning texnik holatini nazorat etishdagi umumiy ish hajmi 13.2-jadvalda keltirilgan.



4-rasm. Engil avtomobillarning texnik holatini nazorat qilish qatori rejasি  
1-rul boshqarmasini tekshirish jihizi bilan birlgiligidagi ko'targich; 2-tormoz jihizi; 3-fara  
yorug'ligini tekshiruvchi jihoz; 4-ma'lumotlar to'plami; 5-boshqarish pulbti; 6-gazoanalizator va  
tutuno'lchagich.

Transport vositalarining turi	Tekshiruv ish hajmi, ishchi-minut		
	benzinli IYOD	dizellar	gazli IYOD
Engil avtomobil	33,1	36,3	36,3
To'liq massadagi avtobus:			
5 tonnagacha	43,3	46,5	46,8
5 tonnadan ortiq	52,0	55,2	56,0
To'liq massadagi yuk avtomobili:			
3,5 tonnagacha	37,7	40,9	40,9
3,5 tonnadan 12 tonnagacha	50,7	53,9	54,7
12 tonnadan yuqori	54,2	57,4	58,2
YArim tirkama*		35,1	
To'liq massali tirkama:			
0,75 tonnagacha		12,5	
0,75 tonnadan 3,5 tonnagacha		22,4	
3,5 tonnadan yuqori		28,0	

\*har qanday turdag'i dvigatelli transport vositalari uchun

Ishlash muddati 5 yildan kam bo'lgan transport vositalari uchun ish hajmining me'yorlari, ish hajmini 0,75 koeffisientga, ishlash muddati 10 yildan ortiqlari 1,25 koeffisientga ko'paytirib aniqlanadi.

Texnik qarov natijalariga ko'ra tasdiqlangan shakldagi diagnostika xaritasi uch nusxada to'ldiriladi va o'tganlik haqidagi talon beriladi. Diagnostik xaritaning birinchi nusxasi transport vositasining egasiga yoki uni tavsiyalovchiga beriladi, ikkinchisi- o'tkazilgan joydagi Davlat inspeksiyasi bo'limida, uchinchisi-texnik qarov punktida saqlanadi.

Yo'l harakati xavfsizligi talablariga biron bir texnik holati va jihozi javob bermaydigan transport vositalari nosoz hisoblanadi va uni ekspluatasiya qilish taqilanganadi.

20 kundan ko'p bo'limgan davrda transport vositalarini qaytadan texnik qarovdan o'tkazilsa, faqat birinchi qarovda talablarga javob bermagan ko'rsatkichlar bo'yicha tekshiriladi.

## **TASHKILIY QISM**

### **Xususiy transport uyushmalarinni tashkil etish asoslari**

Respublikamiz xalq xo'jaligining bozor iqtisodiga o'tishi, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi mamlakatimiz transport bozoridagi ahvolning yil sayin o'zgarib borishiga olib keldi. Respublikamizda dolzarb bo'lgan har-xil tovarlar va xizmatlar bozorida katta korxonalar monopoliyasi bilan raqobat qilishga, uzoq joylardagi sarhadlarda, kichik shaharlarda iqtisodiy sharoitni va ijtimoiy ahvolni yaxshilashga, joylardagi, ayniqsa qishloqlardagi mehnat resurslarining kengayishiga, ishlab chiqarish va xizmat sferalarini iste'molchilarga yaqinlashtirishga, joylardagi xom ashyodan kengroq foydalanishga imkon yaratadi.

Mustaqillikga erishguncha mamlakatdagi transport bozorida davlatning tarmoq va soha korxonalariga tegishli transport – monopolist sifatida gegimonlikni egallab turgan bo'lsa, hozirgi paytda bu ahvol tamoman o'zgarib, xususiy avtomobilarning transport bozoridagi mavqeい va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat salohiyati kundan kun yuksalib bormoqda.

Davlat transportining yo'lovchi yo'naliшlaridagi mavqeい respublikamizning katta shaharlarida saqlanib qolayotgan bo'lsada, viloyatlardagi kichik shaharlarda va shahar yoni yo'naliшlarda tashkiliy jihatdan tezkor, hamda byurokratik tizimlari va ortiqcha harajatlari bo'lмагan shaxsiy transport davlat transportini xizmat bozoridan siqib chiqarmoqda. Xuddi shunday Jizzax shahridagi transport bozorida ham xususiy transport yo'lovchi tashish borasida gegimonlikni egallab olgan.

Mamlakat xo'jaliklarining bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan, avvalo bozor sharoitidan kelib chiqqan holda birin-кетин, keyinchalik davlat qonunchiligi asosida ko'plab xususiy transport sohiblari o'z transportlari bilan transport bozoriga kirib kela boshladi va uning mavqi kundan-kun oshib bormoqda.

2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Respublikadagi mavjud yuridik shaxslar bo'lgan kichik va o'rta biznes sub'ektlarining 6,3 % transport xizmati bilan shug'ullangan, albatta bunga yakka holda xizmat ko'rsatuvchilar qo'shilsa

ko'rsatgich bundan ham katta bo'ladi. Albatta bu raqam bugungi kunda yanada oshgan.

Hozirgi kunda katta shaharlarda davlat transportining mavqeい qisman saqlanib qolayotgan bo'lsada, kichik shaharlar, viloyatlar regionlarida va shaharlaroro yo'naliishlarda, ayniqsa yo'lovchilar tashish borasida, byurokratik tizimlardan holis bo'lgan va shu sababli arzon narxda xizmat ko'rsatayotgan xususiy transport ularni bozordan siqib chiqarmoqda.

Xususiy transportning sonini oshib borishi bilan transport bozorida raqobat yuzaga keldi va bozor uchun kurash maqsadida ko'pgina ilgari yakka holda faoliyat yuritgan xususiy transport sohiblari (taxminan 1996-97 yillardan boshlab) har xil uyushmalar tarkibiga birlasha boshlashdi. 2006 yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 9-martdagi "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish sohasidagi tadbirlar faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishnii tartibga solish to'g'risida"gi PQ №-303 sonli qaroriga asosan ular faqat tuyushmalar tarkibida faoliyat yuritishi mumkin [2].

Xususiy transport xizmatining narxi kam va tashkiliy jihatdan tezkor bo'lishiga qaramay, ular takibidagi transport vositalarining texnik holati va uning nazorati hali talab darajasida emas. SHuning uchun bozordagi raqobatda ustun kelish uchun ularning oldida xizmat madaniyatini oshirish, transport vositalarini yangilash, ularning va haydovchilarni kundalik nazoratini yaxshilash, texnik xizmat ko'rsatish bazalarini yaratish kabi muammolarni hal qilish turibdi.

Yo'lovchi tashishlarni amalga oshirish faoliyati bilan faqat yuridik shaxslar shug'ullanadi. YUridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va ular tomonidan yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanish uchun lisenziyalarni olish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari bilan belgilanadi. YUridik shaxs O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan o'rnatilgan lisenziya talab va shartlariga rioya etishini ta'minlash bo'yicha quyidagi talablarini bajarishi shart. Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan avtotransport vositalarini saqlash hududiga ega bo'lishi kerak. Bu maqsadda, yuridik shaxs o'ziga ashyoviy huquqlar asosida tegishli bo'lgan yoki ijaraga olingan, avtotransport

vositalarini kunduzgi va tungi vaqtarda qo'riqlash imkonini beradigan inshootlarni tashkil etadi. Ushbu transport vositalarini sug'urta qilish maqsadga muvofiq.

YUridik shaxs xaydovchilarni reys oldi va transport vositalarini kunlik texnik ko'rikdan o'tkazish punktini tashkil etadi. Mazkur lisenziya talablarini bajarilishi tegishli ixtisoslikga yo'naltirilgan turdosh tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish orkali amalga oshirishlari mumkin. SHartnoma shartlarida turdosh tashkilotlarni xodimlari tarkibi ularni ma'lumoti va mutaxasislik bo'yicha ish staji xamda ish tartibi ko'rsatiladi. YUridik shaxslar haydovchilarni davriy tibbiy kurikdan xamda amaldagi konunchilik talablari bilan o'rnatilgan muddatlarda avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tishlarini ta'minlaydi.

YUridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi mexnat Kodeksiga asosan xaydovchilarni, ishga qabul qiladi va ushbu Kodeksning 123 moddasiga asosan yo'lovchi tashish bilan bogliq umumiy ish vaqtি hisobini olib boradi. Bu maqsadda haydovchini ish vaqtি davomiyligi bir smenada un ikki soatdan ortiq bulmagan jadval o'rnatiladi.

Tashuvchi yo'lovchi tashish yo'nalishlarda yo'lovchilarga avtotransport xizmati ko'rsatish yuzasidan xar bir yo'nalish bo'yicha, shahar hokimligi qo-shidagi transport departamenti bilan shartnoma tuzishi shart. SHartnoma Vazirlar Maxkamasining 17.08.98 yildagi №350 sonli qarorining 1-ilova 7 punktiga talablariga asosan bir yildan kam bo'limgan muddatga tuzilishi shart.

Tashuvchi yo'lovchi tashish yo'nalishlarda yo'lovchi avtotransporti infrotuzilmasi ob'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari va ulardan foydalanganlik uchun kontraktlarda nazarda tutilgan miqdorlardagi to'lovlarni o'z zimmasiga oladi. YUridik shaxslar yo'lovchi tashish bilan shug'ullanayotganlarga dispatcherlik xizmati, texnik ko'rik xizmati, tibbiy ko'rik xizmati hamda kunlik naqd pul tushumi nazorat xujjatlarni yuritishni tashkil etadi va nazorat kiladi. Tashuvchi yo'lovchi tashishlarini amalga oshirish uchun o'ziga tegishli, jumladan ta'sischilar tomonidan ustav fondiga ulush sifatida kiritilgan xo'jalik yoki operativ boshqaruvidagi, shuningdek ijara olingan avtotransport vositalari foydalanishga xaqlidir. Avtotransport vositasini ijara olish buyicha tashuvchi (ijaraga oluvchi)

va jismoniy shaxs o'rtasida tuzilgan shartnomaga notarial tasdiqlangan bo'lishi shart. Xar bir transport vositasi lisenziya varaqasiga ega bo'lishi kerak.

Tashuvchi yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi xaydovchilar shtatini tegishli ixtisoslikka ega bulgan 21 (yigirma bir) yoshga to'lgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan, kamida 3 yil xaydovchilik stajiga ega bulgan haydovchilarni tashkil etish hamda haydovchilarni yo'naliш sxemasi, yo'l varaqasi, qatnov jadvali bilan ta'minlashga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi yo'l xarakati xavfsizligi to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasiga binoan, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga raxna soluvchi texnik nosozlikka ega bo'lgan transport vositalaridan foydalanish ta'qilganadi. Transport vositalaridan foydalanish ta'qiq-lash IIV YHXB vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan o'rnatilgan tartibda amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladi.

YUridik shaxs O'zbekiston Respublikasining «SHahar yo'lovchi tashish transportida bepul foydalanish tartibga solish tug'risida»gi qonunning 1-moddasi bilan tasdiqlangan ro'yxati asosida yo'lovchilarni (taksidan tashqari) bepul tashishni amalga oshirishga majburdir. Imtiyozli yurish xuquqiga ega yo'lovchilarni tashishni rad etish, yo'lovchi tashish qoidalarini hamda iste'molchini huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Qonunchilikni buzish deb hisoblanadi.

Lisenziya talablari (shartlari)ga rioya etilishini va tashuvchi tomonidan lisenziya olish uchun takdim etilgan xujjalarni xakikiyligini tekshirish tartibi.

Lisenziyalovchi organ qonunchilikda ko'zda tutilgan holda, doimiy ravishda tashuvchi tomonidan, lisenziya talab shartlariga rioya etilish ustidan nazoratni olib borishga xaqli. YHXB idoralari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 martdagি qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida ko'rsatilgan muddatlarda avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazadilar.

Xususiy transportning Respublikamiz transport bozordagi mavqeい, ayniqsa yo'lovchi tashish borasida kundan kun oshib bormoqda. 2005 yildagi Jizzax shahridagi holatning tahlili shuni ko'rsatadiki yo'lovchi tashish bilan shug'ullanayotgan mavjud 12 ta xususiy transport sub'ektlaridan 1 tasi xususiy avtotransport vositalari uyushmasi (XATU), 1 ta sho''ba korxonasi (SHK), 1 ta

ma'suliyati cheklangan jamiyat (MCHJ) va 9 tasi ko'p tarmoqli xususiy firma (KTXF) shaklida faoliyat yuritadi [6].

2005 yilda Jizzax shahridagi mavjud 24 ta mitti avtobus va 7 ta avtobus yo'naliшlarida 12 ta xususiy sub'ekt yo'lovchi tashish bilan shug'ullangan bo'lib ularning tarkibida 770 ta transport vositasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2006 aprel oyida kelib mavjud 26 ta mitti avtobus va 7 ta avtobus yo'naliшlarida 12 ta xususiy sub'ekt yo'lovchi tashish bilan shug'ullangan va tarkibidagi transport vositasining soni 862 taga, 2007 yilga kelib esa mavjud 38 ta mitti avtobus va 7 ta avtobus yo'naliшlarida 12 ta xususiy sub'ekt yo'lovchi tashish bilan shug'ullangan va tarkibidagi transport vositasining soni 1187 taga etgan.

Albatta, transport bozoridagi transport xizmati sifati va madaniyatini yuqori saviyaga ko'tarishni uyushmalarning texnik bazalarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. SHu sababli transport xizmatini ko'rsatayotgan barcha o'rta va kichik biznes sub'ektlari o'zlarining ishlab chiqarish texnik bazalariga ega bo'lislari lozim. SHu bilan birga bu bazalar texnologik jarayonlarni tashkil qilinishi, hamda jihozlanishi bilan zamonaviy talablarga javob berishi kerak, ya'ni korxonalarining ishlab chiqarish uchastkalari va ularga o'rnashtirilgan texnologik jihozlar tarkibi va soni shu korxonalarning quvvatiga, ishlab chiqarishining ixtisoslanganligiga bog'liqdir.

Avtomobilarga to'la ravishda (kompleks) xizmat ko'rsatish uchun korxonalarda quyidagi ishlab chiqarish uchastkalari tashkil etilgan bo'lishi kerak:

- avtomobilarni yuvish va quritish;
- maxsus diagnostika uchastkasi;
- texnik xizmat ko'rsatish postlari;
- ta'mirlash va agregatlarni almashtirish postlari;
- kuzov elementlarini (eshiklari, kanotlari, bamperlari va h.k.) ta'mirlovchi postlar;
- avtomobilъ agregatlari, uzellari, priborlari va jihozlarini ta'mirlovchi ustaxonalar;
- g'ildiraklar va shinalarga xizmat ko'rsatuvchi;
- akkumulyatorlarni ta'mirlovchi va zaryadka qiluvchi;

- elektr jihozlariga xizmat ko'rsatuvchi;
- dvigatelning ta'minot tizimi priborlari (karbyurator, benzonasos va h.k.) ga xizmat ko'rsatuvchi;
- kuzovni ta'mirlash kompleksi (tunukasozlik, payvandlash, armatura, bo'yashga tayyorlash, bo'yash va quritish).

O'z R A transport agentligi Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ 2014 yil 1 mart kuni Navoyi vlioyat xokimning Qarori asosida davlat ro'yxatiga olingan. Korxona yo'llochi tashish uchun mo'ljallangan bo'lib uning to'liq nomi kup tarmokli xususiy firmasi deb nomlandi.

Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ EIZsida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni  $5000\text{ m}^2$  ga teng. Asosan Navoyi Xatirchi yo'nalishida mitti avtobus yo'nalishida 25 ta Damas, 7 ta GAZEL avtobusi bilan yo'lovchi tashish orqali faoliyat yuritib, tarkibida jami 30 ta transport vositasi mavjud.

Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJ O'zbekiston Respublikasi «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2006 yil 9 martdagi «Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini alohida turlarini amalga oshirish tartibga solish to'g'risi»dagi PQ №303 sonli qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 28 fevralb 2006 yil PQ №294 sonli qarori, Ishtixon tumani hokimining 2006 yil 29 martdagi №158 sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29 maydagi №98 sonli qarorlari asosida yo'lovchi tashish bilan shug'ullanadi.

Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJning boshkaruv tarkibida 7 ta ishlab chikarish texnika bazasi mavjud bulib, unda asosan kunlik tibbiy ko'rik, kunlik texnik nazorat postlari, zarur ustaxonalar, sexlar va texnologik jixozlar mavjud.

Navoyi vlioyat xududiy boshgarmasiga garashli MChJning sozlov ustaxonasi tarkibida mavjud bo'lgan ustaxonalar

## 1. Elektrotexnika sexi.

Ichki maydoni – 27,5 m<sup>2</sup>, quyidagi garaj jihozlari mavjud: startyorlarni tekshirish uchun stanok, generatorlarni tekshirish uchun stand, slesarlik verstaklari – 2 dona, slesarlik tisklari – 2 dona.

2. Vulkanizasiya sexi.

Ichki maydoni – 30 m<sup>2</sup>, quyidagi garaj jihozlari mavjud: vulkanizasiya apparati, elektrocharx, avtomobilarning kameralarini tekshirish uchun vanna, slesarlik stanogi, slesarlik tiski.

3. Moylash sexi (posti). Ichki maydoni – 80,5 m<sup>2</sup>, quyidagi garaj jihozlari mavjud: solidol quyuvchi apparat -1 dona, moy tarqatuvchi kolonka – 1 dona, slesarlik verstagi – 1 dona, slesarlik tiski – 1 dona, MG-8A-avtollar uchun idish – 1 dona, M10V<sub>2</sub> dizel moylari uchun idish – 1 dona.

Kunlik qarov mintaqasi Umumiylig maydoni 36 m<sup>2</sup>, garaj jihozlari mavjud: qarash chuquri.

## TEXNOLOGIK QISM

### Texnologik hisob

**Talaba FIO:** Safarov

**Gurux 403-14 EUTT**

Boshlang'ich ma'lumotlar	Belgilanishi	qiymati
<b>Avtomobil turi</b>		
<b>Avtomobillar soni, dona</b>	$A_i$	<b>30</b>
<b>Avtomobilarning safarda bo'lish kunlari, kun</b>	$D_{sk}$	<b>365</b>
<b>Ishchi va xizmatchilarni ATK da yillik ish kunlari</b>	$D_{ik}$	<b>365</b>
<b>O'rtacha kunlik yuriladigan yo'l, km</b>	$L_{kv}$	<b>210</b>
<b>Avtomobilarning naryaddagi vaqt, soat</b>	$T_n$	<b>10</b>
<b>Yangi avtomobillar soni, dona</b>	$A_{iva}$	<b>10</b>
<b>Qayta tiklashdan o'tgan avtomobillar soni, dona</b>	$A_{ie}$	<b>10</b>
<b>Me'yoriy 1-TXK davri, km</b>	$L_{m1}$	<b>40000</b>
<b>Me'yoriy 2-TXK davri, km</b>	$L_{m2}$	<b>160000</b>
<b>Me'yoriy kayta tiklashgacha yuradigan yo'l, km</b>	$L_{mk}$	<b>300000</b>

#### 1,2-TXK va KT gacha yuradigan yo'llarni to'g'rilash koeffisientlari

<b>Yo'l sharoiti toifasini hisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_1$	<b>0,8</b>
<b>Avtomobil turini hisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_2$	<b>1</b>
<b>Tabiiy iqlim sharoitini hisobga oluvchi koeff.</b>	$K_3$	<b>0,9</b>
<b>XK yangiliginini xisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_{4ya}$	<b>0,7</b>
<b>XK eskiliginini xisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_{4e}$	<b>1,4</b>
<b>Avtomobilarni 2-TXK da turish kunlari, kun</b>	$D_2$	<b>1</b>
<b>1000 km ga to'g'ri keluvchi TXK va JT da turish kunlari</b>	$D_{xit}$	<b>0,5</b>
<b>Avtomobilarni KT da turish kunlari, kun</b>	$D_k$	<b>18</b>
<b>2-TXK smenalari soni</b>	$m_2$	<b>1</b>
<b>JT smenalari soni</b>	$m_{it}$	<b>2</b>
<b>Yiliga MXK ni o'tkazish uchun zaruriy kun, kun</b>	$D_{mxv}$	<b>42</b>

#### TXK va JT me'yoriy solishtirma ish hajmlari

<b>KXK me'yoriy solishtirma ish hajmi, ishchi soat</b>	$t_{mx}$	<b>0,5</b>
<b>1-TXK me'yoriy solishtirma ish hajmi, ishchi soat</b>	$t_{m1}$	<b>4</b>
<b>2-TXK me'yoriy solishtirma ish hajmi, ishchi soat</b>	$t_{m2}$	<b>10</b>
<b>JT me'yoriy solishtirma ish hajmi, ishchi s./1000 km</b>	$t_{mit}$	<b>5</b>

#### TXK va JT me'yoriy solishtirma ish hajmlariga tuzatish kiritish koeffisientlari

<b>Yo'l sharoiti toifasini hisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_1$	<b>1</b>
<b>Avtomobillar turini hisobga oluvchi koeffisient</b>	$K_2$	<b>1,1</b>
